

**TA'LIM JARAYONIDA MUSTAQIL FIKRLOVCHI, KREATIV SHAXSNI
TARBIYALASHDA BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING PEDAGOGIK
TAYYORGARLIGI**

Abduhalimova Yulduz Normuord qizi

*Termiz davlat Pedagogika instituti Boshlang'ich ta'limda matematika
va ona tili kafedrası o'qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim-tarbiya jarayonida faol ishtirok etuvchi bo'lajak o'qituvchilarning o'sib kelayotgan yoshlarni mustaqil, kreativona fikrloaydigan qilib tarbiyalashdagi mas'uliyatini oshirish hamda o'zining ham kreativlik sifatlarini shakllantirish ustida fikrlar yuritilgan. Shuningdek, bu borada ish olib borgan tadqiqotchilar ham o'rganilgan.

Kalit so'zlar: kreativlik, o'qituvchi, pedagogik faoliyat, ijodiy yondashish, kreativ ko'nikma, uzluksiz ta'lim

Annotation: This article reflects on increasing the responsibility of future teachers, who actively participate in the educational process, in nurturing young generations to think independently and creatively, and on shaping their own creative qualities. Researchers who have worked in this area have also been studied.

Keywords: creativity, teacher, pedagogical activity, creative approach, creative skill, continuous education

Hozirgi kun dunyo ta'lim taraqqiyotining jadal suratlarda rivojlanishi avvalambor ta'lim jarayoniga innovatsion va kreativ yondashish lozimligini taqozo etmoqda. Chunki jahonda har qaysi jamiyatning rivojlanishi va yo'nalishini begilab beruvchi innovatsion-kreativ ijodkorlik ta'siri ostida yuz berib, inson faoliyatining har bir sohasida ijodkorlikka bo'lgan ehtiyojning ortishi bilan tavsiflanadi. Xorijiy rivojlangan mamlakatlarda, jumladan AQSH, Kanada, Germaniya, Rossiya, Yaponiya, Koreya kabi davlatlarda o'qitish jarayonlari innovatsion-kreativ yondashuv asosida amalga oshirilmoqda.

Ijodkor shaxsning shakllanishini shaxsning o'zaro mos tarzda bajarilgan ijodiy faoliyat va ijodiy mahsulotlarni yaratish borasidagi rivojlanishi sifatida belgilash mumkin. Ushbu jarayonning sur'ati va qamrovi biologik va ijtimoiy omillar, shaxsning faolligi va kreativ sifatleri, shuningdek, mavjud shart-sharoit, hayotiy muhim va kasbiy shartlangan hodisalarga bog'liq. Zamonaviy sharoitda pedagogning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi taqozo etadi.

So'nggi yillarda yetakchi xorijiy mamlakatlarning ta'lim tizimida o'quvchi va talabalarda kreativlik sifatlarini shakllantirish masalasiga alohida, jiddiy e'tibor qaratilmoqda. Buni

Bronson, Merriyman (2010-y.), Ken Robinson (2007-y.), Fisher, Frey (2008-y.), Begetto, Kaufman (2013-y.), Ali (2011-y.), Treffinger (2008-y.)lar tomonidan olib borilgan ko'plab tadqiqotlar, ularning natijalarini ko'rish mumkin. Qolaversa, o'qituvchilar kreativlik asoslarini o'rganishga jiddiy kirishganlar (Begetto, Kaufman, 2013-y.). O'qituvchilarda pedagogik faoliyatni kreativ yondashuv ko'nikma, malakalarini shakllantirish hamda rivojlantirishga doir adabiyotlar chop etilyapti,

Salmoqli amaliy ishlar olib borilayotganligiga qaramay, ko'pchilik o'qituvchilar hali hanuz shaxs (o'zlarida hamda o'quvchilarda) kreativlik sifatlarini qanday qilib samarali shakllantirish tajribasini o'zlashtira olmayaptilar.

Ta'lim tizimini boshqarish organlari har yili ta'lim muassasalarida yuqori samaradorlikka erishishga e'tibor qaratadi. Ana shu maqsadda o'quv dasturini ishlab chi qiladi, yangi o'quv darsliklari yaratiladi. Bu esa ham talabalar, ham o'qituvchilarni kasbiy o'sishlariga yordam beradi. Olib boriladigan amaliy harakatlar talabalarda yutuqlarga erishish, olg'a intilishga bo'lgan ehtiyojni muayyan darajada yuzaga keltiradi, ularning o'quv-bilish qobiliyatlarini bir qadar rivojlantirishga yordam beradi.

Mazkur holatni bevosita kuzatib, chuqur tahlil qilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. M. Mirziyoyev 2019-yil 23-avgustda xalq ta'limi, oliy ta'lim xodimlari bilan bo'lgan muloqotda uzluksiz ta'lim tizimida olib borilishi kerak bo'lgan dolzarb vazifalar haqida fikr yuritib, «... bugungi kunda ta'lim muassasalarida faoliyat olib borayotgan o'qituvchilarning obro'sini ko'tarish, shu bilan bir qatorda bugun o'qituvchilarning o'zlari ham ta'lim-tarbiya jarayoniga yangicha ijodiy yondashishi lozim»[1], - degan bir qator fikrlarni bildirib o'tdi.

Shuningdek, yurtboshimiz Sh. M. Mirziyoyev 2020-yil 24-yanvarda Oliy majlisga qilgan murojaatnomasida ham, ta'lim-tarbiyaning uzviy bog'liqligini yanada kuchaytirish maqsadida «Sharqona qarashlarimizda ta'limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta'limdan ajratib bo'lmaydi. Bu esa bugungi kun o'qituvchisidan katta mas'uliyatni talab qiladi»[2], - deb ta'kidladilar.

Bugungi kun o'qituvchilari ta'lim-tarbiya ishlarida faol qatnashar ekanlar, ular o'z faoliyatlarini zamon bilan hamohang tarzda tashkil etishlari talab etiladi. Shuningdek, umumta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan boshlang'ich sinf o'qituvchilari hamda bo'lajak o'qituvchilar umumiy va maxsus kompetentsiyalarga ega bo'lishi hamda o'z faoliyatida ijodkorlik qobiliyatlarini namoyon eta olishi lozim.

Darhaqiqat, hozirgi kunda tarbiya jarayoni dunyo miqyosida global muammoga aylanib bormoqda. O'tgan asrda yashagan ma'rifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy aytgan: "Tarbiya biz uchun yo hayot-yo mamot, yo najot-yo halokat, yo saodat-yo falokat masalasidir" iborasi ayni kunda ham o'z qimmatini yo'qotgan emas. Ayniqsa, dunyo bilan bo'ylashishimiz uchun avvalambor, yoshlarning ta'lim- tarbiyasi hamda ularning mustaqil ijodiy fikrga egaliklari dolzarb ahamiyat kasb etadi. Mustaqillikning ilk yillaridan boshlab yurtimizda ta'lim tizimini

isloh qilishga katta e'tibor qaratilib, bugungi kunda buning o'z samarasini berayotganligining ham guvohi bo'lib turibmiz. Biroq, shiddat bilan rivojlanayotgan, fan-texnika va texnologiyalar asri o'z navbatida ta'lim, ilm – fan oldiga yangi talablarni qo'ymoqda. Jamiyatimizning yanada ravnaq topishi, taraqqiyoti va istiqboli amalga oshirilayotgan islohotlar, rejalar samarasi, taqdiri, avvalambor, zamon talablariga javob beradigan yuqori malakali, ongli mustaqil fikrlovchi, kreativ mutaxassis kadrlarni tayyorlash muammosi bilan ham bog'liqdir. Kreativ, faol, mustaqil fikrlovchi shaxsni tarbiyalab voyaga yetkazish hayotiy zarurat bo'lib xizmat qilmoqda. Shu boisdan, faol, kreativ, aql-zakovatli, ziyoli yoshlarni tarbiyalash biz pedagoglarning zimmasidagi ulkan mas'uliyatdir. Buyuk fransuz yozuvchisi A.Barbyus fikricha: "Maktab voyaga yetayotgan avlod tafakkurini shakllantirish ustaxonasidir, agar kelajakni qo'ldan chiqarishni istamasang, maktabni qo'lda mustahkam tutmog'ing lozim". Shunday ekan, mustaqil fikrlovchi, kreativ shaxsni tarbiyalashni tafakkurni shakllantiruvchi ustaxona-maktab, ya'ni o'quvchilik davridan ko'rib chiqaylik. Psixologik olim Engelmeyer o'quvchi yoshlarda ijodkorlikni, kreativlikni shakllantirish uchun ijodiy faoliyatni birinchi o'ringa qo'yadi. Uning fikricha xohish va qiziqish jarayonlarini rivojlantirish ijodiy faoliyatning asosi bo'lib xizmat qiladi. Buning uchun esa dars jarayonlarini yuqori ilmiy – pedagogik darajada tashkil etish kerak. Shuningdek, ta'lim jarayonida muammoli, qiziqarli, savol-javob tarzidagi interfaol metodlardan foydalanish lozim. Bunday mashg'ulotlar o'quvchilarni kreativlikka undashi, erkin muloqot yuritishi, ijodiy fikrlashga o'rgatishi mumkin. Kreativlik insondan ijodkorlikni talab etadigan tushunchadir. Bir masala yuzasidan hamma bir tushunchani tushunishi mumkin, kreativ shakllangan shaxs esa uning boshqa qirralariga ham e'tibor qaratadi. Biz kreativlik, kreativ shaxsni tarbiyalash xususida so'z olib borar ekanmiz, shu o'rinda, - kreativlik o'zi nima?-- degan savolga javob beraylik. Kreativlik (lot., ing. "create" - yaratish, "creative" yaratuvchi, ijodkor) -shaxsning yangi g'oyalarni ishlab chiqishga tayyorligini tavsiflovchi hamda mustaqil omil sifatida iqtidorlilikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyat ma'nosini ifodalaydi. Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi.

Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini, zehni o'tkirlikni tavsiflaydi. Shuningdek, kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida aks etadi. Xorijiy mamlakatlarda barcha sohalarining mutaxassislari kabi o'qituvchilar ham o'zlarida kreativlik sifatleri mavjudligi va uning darajasini aniqlab boradi. Buning uchun ular E.P.Torrens tomonidan 1987-yilda asoslangan va shaxsning kreativ tafakkurga egaligini aniqlovchi testdan o'tadi. Mazkur test shaxs kreativligi va uning darajasini ijodiy faoliyatni tashkil etishdagi faollik, tezkor fikrlash, o'ziga xos (original)lik va takomillashganlik kabi mezonlar bo'yicha baholash imkoniyatini yaratadi. O'quvchi tomonidan tavsiya etilgan savollarga

beriladigan javoblar aynan mana shu to'rtta mezonni qanotlantirishi lozim. P.Torrens fikricha, «kreativlik muammo yoki ilmiy farazlarni ilgari surish; farazni tekshirish va o'zgartirish; qaror natijalarini shakllantirish asosida muammoni aniqlash; muammo yechimini topishda bilim va amaliy harakatlarning o'zaro qarama-qarshiligiga nisbatan ta'sirchanlikni ifodalaydi»

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarning kreativlik sifatlariga ega bo'lishi ularning shaxsiy qobiliyatlari, tabiiy va ijtimoiy quvvatini kasbiy faoliyatni sifatli, samarali tashkil etishga yo'naltiradi. Shuningdek, o'quv va tarbiya jarayonlarini tashkil etishga an'anaviy yondashishdan farqli yangi g'oyalarni yaratish, bir qolipda fikrlamaslik, o'ziga xoslik, tashabbuskorlik, noaniqlikka toqat qilmaslikka yordam beradi. Binobarin, kreativlik sifatlariga ega pedagog kasbiy faoliyatini tashkil etishda ijodiy yondashish, yangi, ilg'or, o'quvchilarning o'quv faoliyatini, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladigan g'oyalarni yaratishda faollik ko'rsatish, ilg'or pedagogik yutuq va tajribalarni mustaqil o'rganish, shuningdek, hamkasblar bilan pedagogik yutuqlar xususida doimiy, izchil fikr almashish tajribasiga ega bo'lishga e'tibor qaratadi.

Ayni o'rinda shuni alohida qayd etib o'tish joizki, har bir shaxs tabiatan kreativlik qobiliyatiga ega. Xo'sh, shaxs o'zida kreativlik qobiliyati mavjudligini qanday namoyon eta olishlari mumkin? Bu o'rinda Patti Drapeau shunday maslahat beradi: «Agarda o'zingizni kreativ emasman deb hisoblasangiz, hozirdanoq kreativ tafakkurni rivojlantirishga qaratilgan mashg'ulotlarni tashkil eta boshlashingizni maslahat beraman. Aslida, gap sizning ijodkor bo'lganingiz yoki bo'lmaganingizda emas, balki ijodkorlik faoliyatni kreativlik ruhida tashkil etishingiz va yangi g'oyalarni amalda sinashga intilishingizdadir» [3, 4 b.].

Patti Drapeau nuqtai nazariga ko'ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama fikrlash o'qituvchilardan o'quv topshirig'i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to'g'ri g'oyaga asoslanishni ifodalaydi. Mushohada yuritishda muammo yuzasidan bir va ko'p tomonlama fikrlashdan birini inkor etib bo'lmaydi. Binobarin, bir va har tomonlama fikrlash kreativlikni shakllantirishda birdek ahamiyat kasb etadi. Ya'ni, topshiriqni bajarish, masalani yechishda shaxs yechimning bir necha variantini izlaydi (ko'p tomonlama fikrlash), keyin esa eng maqbul natijani kafolatlovchi birgina to'g'ri yechimda to'xtaladi.

Shaxsning kreativligi uning tafakkurida, muloqotida, his-tuyg'ularida, muayyan faoliyat turlarida namoyon bo'ladi. Kreativlik shaxsni yaxlit holda yoki uning muayyan xususiyatlarini tavsiflaydi. Kreativlik iqtidorning muhim omili sifatida ham aks etadi. Qolaversa, kreativlik zehni o'tkirlikni belgilab beradi, «o'quvchilar e'tiborini ta'lim jarayoniga faol jalb etishni ta'minlaydi».

Hozirgi zamon talabi ham, noan'anaviy, innovatsion texnologiyalardan foydalangan holda, yaratuvchanlik, ijodkorlik mahoratiga ega kreativ kadrlarni talab qilmoqda. Ijodkor kreativ shaxsni tarbiyalashda ijodiy faoliyatdan tashqari tasavvur qila olish ko'nikmasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Tasavvurni oddiygina qilib "ko'zimizning oldiga keltirmoq", deb tushunsak ham bo'ladi. Tasavvur nafaqat badiiy san'atda, balki fanda ham yuksak mavqega loyiq. Bu fikrimning isboti sifatida buyuk nemis matematigi D.Gilbertning bir shogirdi haqidagi fikrini keltirishni joiz deb bildim: "U shoir bo'lib qoldi, chunki matematik bo'lishi uchun tasavvuri kamlik qilardi". Tarixga nazar tashlaydigan bo'lsak, yurtimizda yashab ijod etgan mutafakkirlarimiz tomonidan ham o'z davrida ta'lim jarayonida mustaqil fikrlovchi, ijodkor, kreativ shaxslarni tarbiyalashda o'qitishning qanday usul va vositalaridan foydalanish lozimligi borasida ahamiyatli fikr – mulohazalar o'rta tashlangan. Shu jumladan, qomusiy buyuk olim Abu Rayhon Beruniy o'z asarlarida bu boradagi masalalarga alohida to'xtalib, o'quvchi shaxsi, tafakkurini rivojlantirish uchun ta'lim berishda ko'proq qaysi tomonlarga e'tibor berish kerakligini bayon qiladi. Xususan, olimning ta'kidlashicha o'qitishda yodlatish emas, balki tushunish, mantiqiy fikrlash, xulosalar chiqarish yo'lga amal qilish muhimdir. Bugungi kunda esa bizning mamlakatimiz ham xalqaro baholash tizimiga o'tayotganligi ham aynan kreativ shaxslarni tarbiyalashning asosi bo'lib xizmat qilmoqda. Bu baholash tizimi o'quvchi yoshlarni ulug' bobokalonlarimiz aytib o'tganlaridek yodlatish emas, aksincha, mantiqiy, kreativlik ya'ni ijodkorlik asosida fikrlashga chorlaydi. Shunday ekan, maktabning asosiy vazifasi ularga ta'lim beribgina qolmasdan, balki ularning qobiliyatlari va qiziqishlarini ro'yobga chiqarishi lozim. Ayniqsa, bu vazifalarni boshlang'ich sinfdan boshlash yaxshi samara beradi. Unda o'qituvchi har bir dars mashg'ulotida ijodkorlik tasavvurini shakllantirib borishi lozim. Ayrim topshiriqlarni bajarishda qiynalib qolganda unga tezgina yordamga oshiqmaslik lozim, ya'ni ularning mustaqil fikrlashlari, chuqur mulohaza yuritishlari, o'zlarida yaratuvchanlik, ijodiylikni yaratishlari uchun sharoit yaratib berishlari maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu bilan, o'quvchi yoshlarni topqirlikka, erkin fikrlashga, kreativlikka undaydigan topshiriqlarni sekin-astalik bilan miqdorini oshirib borish, va bu topshiriqni a'lo darajada ado etgan o'quvchilarni rag'batlantirib borish, o'z ustida ishlaydigan yaratuvchan kreativ kadrning asosi bo'lib xizmat qiladi. O'quvchilarni ijodiy faollikka undash davomida o'qituvchi o'quvchilarni obrazli fikrlashga undashi, fikrning muhim joylariga urg'u berib, alohida ajratgan holda ifodalashi, xushmuomalali va ziyrak bo'lishi talab etiladi. Shuni alohida ta'kidlab o'tish joizki, o'qituvchi biror fikrni, tushunchani tushuntirayotganda "faraz qiling", "tasavvur qiling", "ijodiy parvoz eting" jabi jumalarni albatta aytishlari muhim vosita bo'lib xizmat qiladi. Mustaqil fikrlaydigan, ijodkor, kreativ shaxsni tarbiyalashda kitobning ham o'rni beqiyos. Shuningek, kitob o'zida rivojlantiruvchi va tarbiyalovchi ulkan imkoniyatni saqlaydi.

O'quvchining aqlini rivojlantirib, har bir mavzuda o'zining mustaqil fikrini bayon eta oladigan, his-tuyg'ularga boy ijodiy faoliyati yuksalgan har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalaydi. Buning uchun esa har bir o'qituvchi qaysi fanda dars berishidan qat'iy nazar o'quvchi qalbida mehr uyg'otish, uni kitob o'qishga qiziqtirish maqsadga muvofiqdir.

Kreativ ko'nikmalarni ta'lim oluvchilarda rivojlantirish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan bo'lib, yuqorida keltirilgan nazariy asoslarga tayangan holda quyidagi xulosaga kelish mumkin:

Zamonaviy sharoitda ta'lim va tarbiya jarayonlarining sifatli, samarali tashkil etilishi ijtimoiy zaruriyat sifatida kun tartibiga qo'yilmoqda. Mazkur zaruriyatning qondirilishi pedagoglarning yuqori darajada kasbiy kompetentlik, mahorat va malakalarga ega bo'lishlarini taqozo etadi. Pedagoglarning ta'lim jarayoniga kreativ yondashuvlari talabalarda ta'lim olishga bo'lgan qiziqishni yuzaga keltiradi, ularning o'quv-bilish faoliyatlarini faollashtirishga yordam beradi. Qolaversa, talabalarining mutaxassis sifatida kreativ sifat, ijodkorlik ko'nikma, malakalarini faol o'zlashtirishlari uchun zarur sharoitni yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining Ta'lim to'g'risida Qonuni. 2020 yil 23 sentyabr O'RQ-637 son Qonuni.
2. Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risida. O'zbekiston Respublikasining qonuni. 2016 yil 14 sentabr.
3. Azizxo'jayeva.N.N. Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat. O'quv qo'llanma. - T:O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti.-2016.
4. Ibragimov.X, Abdullayeva .Sh. Pedagogika nazariyasi. (darslik)–T.:”Fan va texnologiya”-2008. 3. www.ziyo.net 4. www.aim.u
5. Файзуллаева Н. Педагогик билимлар – ўқитувчи касбий маҳоратининг назарий асоси //Uzluksiz ta'lim ж. – Т.: 2006. 6-сон. – 102-бет.
6. Турдиева М. Олий таълим муассасалари талабаларида педагогик тафаккурни шакллантириш. – Т.: Низомий номидаги ТДПУ, 2008. – 15-б.
7. Xoliqova P.A “Leksik tushunchalar haqida ma'lumot” Science and education-458- 465 betlar
8. Abduhalimova Y.N. “Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy kompetentlikka tayyorlash hozirgi davrning dolzarb muammosi” ORIENTAL RENAISSANCE: INNOVATIVE, EDUCATIONAL, NATURAL AND SOCIAL SCIENCES SCIENTIFIC JOURNAL (253-258 bet) 2022 yil

9. S.I. Tursunova "UZBEKISTAN IS A COUNTRY OF FRIENDSHIP". Web of Scientist: International Scientific Research Journal. 185-189 B VOLUME 2, ISSUE 7, JULY 2021

10. Д.У.Азимова On the Example of Abdulla Avloni, The Hero of the National Awakening Period. MIDDLE EUROPEAN 179 SCIEARCH BULLETIN. 2022, [177/180] ISSN 2694-9970

1. U. Muminova "IMPORTANT PROBLEMS OF UZBEK ANONYMITY IN THE WORKS OF KASGHARI". Web of Scientific Research Journal. ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 9, sep. 2022.

14.D.U.Azimova. (2021). Abdullah Avloni's Pedagogikal Views And its Essence. The American Journal of Social Science and Education Innovations 3(05), 255-260

15. Ollokulova F.U VALUE RELATIONSHIPS IN YOUNG PEOPLE AND THE UNIQUENESS OF THEIR DECISION MAKING. Web of Scientific Research Journal. ISSN: 2776-0979, Volume 3, Issue 9, sep. 2022.